

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

IKRAMOVA IRODA RIXSIVAYEVNA

**IBN RUSHD “IKKI HAQIQAT” KONSEPSIYASINING
FALSAFIY TAHLILI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K: 101.9:141.1

КБК: 87.3(0)

I – 54

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philosophical Sciences**

Ikramova Iroda Rixsivayevna

Ibn Rushd “Ikki haqiqat” konsepsiyasining falsafiy tahlili..... 3

Икрамова Ирода Рихсиваевна

Философский анализ концепции «Двойственной истины» Ибн Рушда..... 23

Ikramova Iroda Rixsivayevna

Philosophical analysis “Two truths” concept of Ibn Rushd..... 44

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05. RAQAMLI ILMiy KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

IKRAMOVA IRODA RIXSIVAYEVNA

**IBN RUSHD “IKKI HAQIQAT” KONSEPSIYASINING
FALSAFIY TAHLILI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Fal453 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi ik-falsafa@nuu.uz va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna

falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xolmo‘minov Ja’far Muhammadiyevich

falsafa fanlari doktori, dotsent

Agzamxodjayeva Shaxnoza Saitmatmobovna

falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05. raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “23” iyun soat 12:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona. Tel: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nuuka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (89 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel: (99871) 236-46-55; faks: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “12” iyun kuni tarqatildi.

(2023 yil “12” iyundagi 10 raqamli reyestr bayonnomasi).

I.S.Saifnazarov

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

N.B.Abdullayeva

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi v.b., falsafa fanlari doktori, dotsent

J.S.Ramatov

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahonda globallashtirish tendensiyasi keskin tus olib, xalqlarning milliy mental xususiyatlari va uning lokal sivilizatsiyalariga nisbatan tahdidlar kuchayib borayotgan bir vaqtda millatlararo hamjihatlik, konstruktiv hamkorlik, dinlararo bag'rikenglik tamoyillarini o'zida mujassamlashtiruvchi imon va bilim bog'liqligi g'oyasini tatbiq qilish zarurati kundan-kunga dolzarblashib bormoqda. Jahonda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarni bartaraf qilish yo'lida har bir shaxsning butun insoniyat oldidagi mas'uliyatini chuqur his qilishi va bunda diniy qadriyatlar hamda aql va bilimning mutanosibligiga erishishi ushbu muammoni bartaraf etishda muhim o'rin tutishini ko'rsatmoqda. Insoniyatning intellektual va ma'naviy madaniyatining asosini belgilab beruvchi kategoriyalar tuzilmasida diniylik va dunyoviylik asosida sintezlangan Ibn Rushd qarashlaridagi din va falsafa uyg'unligi borasidagi "Ikki haqiqat" ta'limoti bu borada muayyan g'oyaviy yechim vazifasini bajarishi nazarda tutilsa, uni falsafiy-tarixiy yondashuv asosida o'rganishning zarurati yaqqol namoyon bo'ladi.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida Ibn Rushd qarashlaridagi din va falsafa bog'liqligi borasidagi "Ikki haqiqat" ta'limoti ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy, diniy, akseologik nuqtai nazardan keng o'rganilmoqda. Xususan, bu boradagi ilmiy izlanishlarda Ibn Rushdning "Ikki haqiqat" ta'limotida din va falsafa uyg'unligi, uning dunyoqarashiga sharq peripatetiklarining ta'siri, uning e'tiqod va aql munosabatiga oid qarashlarining nazariy-metodologik tahlillari, shuningdek, "Ikki haqiqat" ta'limotining gnoseologik jihatlariga ko'ra o'rganilishi mazkur masala yuzasidan tadrijiy, qiyosiy hamda kompleks tarzda yondashish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu Ibn Rushd dunyoqarashini tashkil etuvchi "Ikki haqiqat" ta'limotining falsafiy, diniy tamoyillarini falsafiy-tarixiy nuqtai nazardan mukammal tadqiq qilishni hamda ular asosida dunyoviylik va diniylik o'rtasidagi muvozanati mexanizmlarini rivojlantirishga oid ilmiy xulosalar taklif qilish vazifasini qo'yimoqda.

O'zbekistonda fan va din o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning madaniy, ma'rifiy va axloqiy xususiyatlarini o'rganish, uning asosiy omillarini nazariy-falsafiy tahlil qilish maqsadida Ibn Rushdning "Ikki haqiqat" ta'limotini milliy manfaatlarimizga mos ravishda yangi takliflar ishlab chiqishda "dunyoviylik va diniylik mutanosibligi" tamoyiliga asoslanish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan Respublikamizda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan O'zbekistonda din va ilm-fan munosabati, diniy tashkilotlar faoliyatini dunyoviylik tamoyili asosida takomillashtirishga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"

farmonlari, 2020 yil 16 apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 10 fevraldagi PQ-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlanishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ibn Rushd falsafiy dunyoqarashidagi “Ikki haqiqat” konsepsiyasining falsafiy tahlilini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar, avvalo, uning asarlariga, din va falsafani aloqadorligi borasidagi Ibn Rushddan avval va undan keyin ijod qilgan faylasuflar asarlariga shuningdek, mavzu doirasiga tegishli ilmiy tadqiqotlarga tayanilgan holda olib borildi. Bunda, avvalo, Ibn Rushdning din va falsafa bog‘liqligini tahlil etishga bag‘ishlangan “Kitab Fasl al-maqāl va tarqiq ma bayna ash-shari’a va al-hikma min al-ittisal” (Hikmat va shariat o‘rtasidagi uyg‘unlik haqida risola), “Tahafut at-Tahafut” (Raddiyani rad etish)¹ asarlari muhim manba hisoblanadi.

Ibn Rushdning ilmiy-falsafiy merosini o‘rganish dunyo ilmiy jamoatchiligi e‘tiborini doim o‘ziga jalb qilib kelgan. Xususan, xorijiy mutaxassis-olimlar tomonidan Ibn Rushdning hayoti va ijodi, uning Arastu asarlariga sharhlari, shu bilan birga faylasufning Markaziy Osiyo mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino qarashlari himoyasi maqsadida G‘azzoliy raddiyalariga keltirgan raddiyalari borasida hamda Ibn Rushdning “Ikki haqiqat” konsepsiyasi asosida din va falsafani aloqadorligini ko‘rsatishga bo‘lgan intilishlari xususida bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Ibn Rushd falsafiy qarashlariga oid ko‘plab tadqiqotlar G‘arbning sharqshunos, islomshunos olimlari, faylasuflari tomonidan amalga oshirilmoqda. Xususan, Oliver Liman, L.Gauter, Ernast Renan Ibn Rushdning hayoti va ijodini, uning fikrlari davomchilari averroistlarning qarashlarini, M. Alonso Ibn Rushdning ilohiyotga oid qarashlarini, G.Ley, R.Arnaldez uning epistemologik, ratsionalistik qarashlarini, E.I.Rouzental, Van Der Berg uning asarlarini, sharhlarini, Franchesko Malaguti, Jozef Ellul, Jozef Buijs, Nauman Fayzi, R. Taylor va boshqa tadqiqotchilar faylasufning din va falsafa uyg‘unligi borasidagi qarashlarini tadqiq etganlar. U.M.Uott, Bertran Rassel, G.Korbin, G.E Gryunebaum, A.V.Koyre, G.Ley o‘z asarlarida arab-musulmon faylasuflari qatorida Ibn Rushdning ontologik, ijtimoiy-siyosiy, gnoseologik qarashlarini tahlil qilganlar. Shuningdek, E.Rouzentalning o‘z tadqiqotida arab-musulmon dunyosidagi ratsional,

¹ابن رشد. تهافت التهافت. تاويل دكتور سلايمان دنيا (Ibn Rushd. Raddiyani rad etish.) القاهرة، 1964. – ص. 193. ابن رشد. فصل المقال فيما بين الحكمة والشريعة من الاتصال. القاهرة، 2007. – ص. 109.

gnoseologik, epistemologik qarashlar rivojini tahlili faylasufning “Ikki haqiqat” konsepsiyasiga ratsional va epistemologik jihatdan yondashishga ko‘mak berdi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarining taniqli tadqiqotchilari A.V. Sagadeyev, A.I.Rubin, Y.I.Yeremeyev Ibn Rushdning hayoti, ijodini o‘rganish bilan birga, uning asarlarini ham rus tiliga tarjima qilganlar. Y.A.Frolova, A.A.Ignatenko, asosan, Sharq peripatetiklarining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o‘rganish davomida Ibn Rushdning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ham alohida tahlil qilganlar. T.K. Ibragimov, N.V. Yefremova, A.V. Appalonov bugungi kunda Ibn Rushdning hayoti, ijodi, falsafiy qarashlarini uning asarlari asosida o‘rganib kelmoqdalar. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilardan Abu al-Atto Nasser Abdalla, Feysal Abdul-Raxman Xael Ibn Rushdning “Ikki haqiqat” konsepsiyasining zamonaviy arab dunyosiga ta’siri borasida tadqiqotlar olib bormoqdalar. Bundan tashqari, S.N.Grigoryan, V.V.Sokolov, N.S.Kirabayev, A .Ya.Gurevich, M.T.Stepanyans, R.R.Shangarayev, G.V.Shevkina o‘z tadqiqotlarida Ibn Rushdning falsafiy qarashlarini o‘rganganlar.

Arab-musulmon dunyosida Muhammad Abdo, Farax Antun Ibn Rushdning hayoti va ijodi bilan qiziqdilar. Keyinchalik Ahmad Amin, Majid Faxriy o‘z asarlarining bir qismini Ibn Rushd qarashlariga bag‘ishladilar. Bugungi kunda Doktor Sulaymon Dunyo, Doktor Turod Hamada, Sayyid ibn Sayyid, Abbas Mahmud Aqqod, Muhammad Yusuf Muso va boshqa tadqiqotchilar va olimlar Ibn Rushdning hayoti, falsafiy dunyoqarashini, ontologik hamda gnoseologik, din va falsafa uyg‘unligi borasidagi qarashlarini tadqiq etganlar.

Arab-musulmon falsafasi ilmiy merosida epistemologik va gnoseologik muammolarning umumiy metodologik jihatlarini tadqiq qilgan o‘zbek faylasuf olimlari M.M.Xayrullayev, O.F.Fayzullayev, M.A.Axmedova, M.N. Abdullayeva, M.Qodirov, E.M. Izzetova, B.R.Karimov, B.O.To‘rayev, R.R.Karimov, D.A. Pulatova, N.A. Shermuxamedova, J.M.Xolmo‘minov, G.M.Ruzmatovalarning ishlari mavzu doirasidagi muammolarni tahlil etishda muhim metodologik ahamiyatga ega¹. Mamlakatimizda Ibn Rushdning nafaqat “Ikki haqiqat” konsepsiyasi, balki Ibn Rushd hayoti, falsafiy dunyoqarashi ham kam o‘rganilgan mavzular sirasiga kiradi. Faylasufning merosini o‘rganishga bag‘ishlangan, dunyoqarashining konseptual asoslarini ilmiy nuqtai nazardan chuqurroq tushunishga imkon beradigan yaxlit va keng qamrovli ilmiy-falsafiy tadqiqotlar olib borilmagan. Faqat ilmiy maqola, tezis shaklidagi ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Demak, dissertatsiya mavzusi doirasidagi muammo ilk bor yaxlit tadqiq etilishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Sharq falsafasi va madaniyati qadriyatlarini” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ibn Rushd “Ikki haqiqat” ta’limotining falsafiy mohiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

¹ Mualliflar asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Ibn Rushd falsafiy qarashlarining genezisi, uni rivojlanishining falsafiy jihatlarini hamda “Ikki haqiqat” ta’limotining nazariy va g’oyaviy asoslarini aniqlash;

tarixiy-falsafiy kontekstda Ibn Rushd qarashlaridagi din yoki e’tiqod va falsafa yoki aql mutanosibligining ontologik va epistemologik jihatlarini ilmiy asoslash;

“Kitab Fasl al-maqāl va tarqiq ma bayna ash-shari’a va al-hikma min al-ittisal” asaridagi epistemologik, diniy, falsafiy g’oyalarni germenevtik tahlil asosida ochib berish;

hozirgi davrda Ibn Rushdning ilmiy-falsafiy dunyoqarashidagi “Ikki haqiqat” ta’limotida din va falsafa uyg’unligi g’oyasining ma’naviy-ma’rifiy, qadriyatga doir, madaniy sohalarida ahamiyatini, hamda bugungi yosh avlodni diniy va dunyoviy bilimlar aloqadorligida tarbiyalashda konseptual asos ekanligini ochib berish.

Tadqiqotning obyektini sifatida Ibn Rushdning falsafiy qarashlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Ibn Rushd “Ikki haqiqat” ta’limotining falsafiy-konseptual jihatlarini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, vorisiylik, qiyosiy tahlil, dialektik, germenevtik, biografik va ideografik, fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ibn Rushd “Ikki haqiqat” konsepsiyasida Haqiqat yagonaligini isbotlash bilan birga uning ikki usuli din va falsafa aloqadorligiga undovchi diniy-falsafiy qarashlari majmui madaniyatlararo muloqot, diniy bag’rikenglik kontekstida zamonaviy jamiyat xarakteriga mosligi asoslangan;

Ibn Rushd tomonidan adolat, bag’rikenglik, ilmga muhabbat va diniy ma’rifatga undovchi komillik mezonlari tizimi (integratsiya, unifikatsiya, global dunyoni raqamlashtirish dinamikasining o’sishi) globallashtirish jarayonida yoshlarni diniy ekstrimizm, aqidaparastlik, terrorizm kabi buzg’unchilikka asoslangan mafkuraviy tahdidlar ta’siriga qarshi kurashda substansional asosga ega ekanligi falsafiy jihatdan isbotlangan;

Ibn Rushd “Kitab Fasl al-maqāl va tarqiq ma bayna ash-shari’a va al-hikma min al-ittisal” asarida ilgari surilgan “falsafa va din” hamda “shariat va aql” aloqadorligiga asoslangan konsepsiyasi qarama-qarshi tomonlarning yakdillikka erishishi uchun zamin yaratib beruvchi dunyoviy mamlakatda “irratsionalizm va ratsionalizm” hamda “diniylik va dunyoviylik” uyg’unligi g’oyasining genezisi ekanligi mantiqan asoslangan;

“Ikki haqiqat” konsepsiyasidagi imon, e’tiqod hamda bilim, aql bog’liqligi g’oyasining ma’naviy-ma’rifiy sohalaridagi amaliy ahamiyati, dinlar va madaniyatlarning hamjihatligida, tinchlik va totuvlikni mustahkamlashda diniy ma’rifat va ilm-fanning o’zaro aloqadorligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ibn Rushdning “Ikki haqiqat” konsepsiyasining bugungi globallashuv sharoitida diniy va dunyoviy qadriyatlar uygʻunligidagi meʼyorlar buzilishining oldini olish yoʻllari asoslangan;

eʼtiqod va aql mutanosibligining umuminsoniy maʼnaviy, maʼrifiy modellari, madaniy hamda diniy, axloqiy mexanizmlari Ibn Rushdning “Ikki haqiqat” taʼlimoti asosida ochib berilgan;

diniy hamda dunyoviy qadriyatlar qadrsizlanishi, yaʼni insonlarning maʼrifiy va aksiologik jihatdan tanazzulga uchrashiga olib keladigan ziddiyatlarni hal qilishda amaliy jihatdan qoʻllash mezonlari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida qoʻllanilgan nazariy qarashlar, yondashuv uslublari, ilmiy maʼlumotlarning rasmiy manbalardan, ishonchli dalillardan olinganligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toʻplamlari, OAK roʻyxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, Ibn Rushdning “Ikki haqiqat” taʼlimoti tahlili natijalari, taqdim etilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar globallashuv sharoitida diniylik va dunyoviylik uygʻunligini taʼminlashga bagʻishlangan barcha fan tarmoqlarida oʻtkazilayotgan tadqiqot ishlarini nazariy va uslubiy jihatdan boyitish uchun muayyan manba boʻlib xizmat qilishida namoyon boʻladi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan oliy taʼlim muassasalarida bakalavr va magistratura bosqichlarida “Falsafa”, “Din falsafasi”, “Axloq va nafosat falsafasi”, “Sharq falsafasi va madaniyati tarixi”, “Madaniyat falsafasi va akseologiya”, “Gʻoyalar falsafasi”, “Sharq va Gʻarb falsafasidagi antropologik muammolar” kabi fanlarni oʻqitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ijtimoiy va madaniy muassasalar, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi, shuningdek, oliy taʼlim muassasalarida maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar oʻtkazishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ibn Rushd “Ikki haqiqat” konsepsiyasi falsafiy tahlilining amaliy ahamiyati boʻyicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

Ibn Rushd “Ikki haqiqat” konsepsiyasida Haqiqat yagonaligini isbotlash bilan birga uning ikki usuli din va falsafa aloqadorligiga undovchi diniy-falsafiy qarashlari majmui madaniyatlararo muloqot, diniy bagʻrikenglik kontekstida zamonaviy jamiyat xarakteriga mosligi kabi xulosa va metodologik tavsiyalardan Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” koʻrsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023 yil 8 fevraldagi 06-31-212-son maʼlumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarning Ibn Rushd falsafiy dunyoqarashi, uning diniy

qadriyatlarga munosabati, ularning haqiqat yagonaligi borasidagi qarashlariga doir ilmiy-tarixiy bilimlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

Ibn Rushd tomonidan adolat, bag'rikenglik, ilmga muhabbat va diniy ma'rifatga undovchi komillik mezonlari tizimi (integratsiya, unifikatsiya, global dunyoni raqamlashtirish dinamikasining o'sishi) globallashuv jarayonida yoshlarni diniy ekstrimizm, aqidaparastlik, terrorizm, kabi buzg'unchilikka asoslangan mafkuraviy tahdidlar ta'siriga qarshi kurashda substansional asosga ega ekanligiga doir xulosa va tavsiyalardan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan yillik rejaga muvofiq o'tkazilgan davra suhbatlari hamda targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda foydalanilib, ko'zlangan samarani berdi (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023 yil 8 fevraldagi 01-07/20 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ilmiy tadqiqot natijalari va xulosalari globallashuv jarayonida jamiyatda din va ilm-fan uyg'unligi borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning mohiyatini chuqur anglash, yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga xizmat qilgan;

Ibn Rushd "Kitab Fasl al-maqāl va tarqiq ma bayna ash-shari'a va al-hikma min al-ittisal" asarida ilgari surilgan "falsafa va din" hamda "shariat va aql" aloqadorligiga asoslangan konsepsiyasi qarama-qarshi tomonlarning yakdillikka erishishi uchun zamin yaratib beruvchi dunyoviy mamlakatda "irratsionalizm va ratsionalizm" hamda "diniylik va dunyoviylik" uyg'unligi g'oyasining genezisi ekanligiga oid ilmiy xulosalari natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan nashr etilgan "O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy-falsafiy merosi nomli ensiklopediyasi"ni tayyorlashda hamda markaz tomonidan amalga oshirilgan davra suhbatlarini o'tkazishda, targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023 yil 2 martdagi 02/100 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, buyuk mutafakkur olimlarning ma'naviy merosini falsafiy, diniy jihatdan o'rganib tadqiq etishda va falsafiy g'oyalarni anglashda muhim ahamiyat kasb etdi;

"Ikki haqiqat" konsepsiyasidagi imon, e'tiqod hamda bilim, aql bog'liqligi g'oyasining ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi amaliy ahamiyati, dinlar va madaniyatlarning hamjihatligida, tinchlik va totuvlikni mustahkamlashda diniy ma'rifat va ilm-fanning o'zaro aloqadorligi borasidagi xulosa va amaliy takliflardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022 yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining IX yo'nalishida belgilangan turli mavzulardagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023 yil 9 fevraldagi 02-22/99-son dalolatnomasi). Natijada, Ibn Rushdning "Ikki haqiqat" ta'limoti globallashuv sharoitida dunyo miqyosida e'tiqod va aql uyg'unligi borasidagi diniylik va dunyoviylik mutanosibligi g'oyalarni targ'ib etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (6 ta respublika, 2 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya "Kirish", uchta bob, to'qqizta paragraf, "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" hamda "Ilovalar"dan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti, metodlari asoslangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ibn Rushd ta'limotining genezisi va rivojlanishining falsafiy hamda nazariy-matodologik asoslari**" deb nomlanib, unda musulmon-arab dunyosida falsafiy g'oyalar evolyutsiyasining tarixiy-madaniy sharoitlari, Ibn Rushd falsafiy qarashlarining metodologik jihatlari, uning "Ikki haqiqat" ta'limotining nazariy va g'oyaviy asoslari kabi masalalar ilmiy-nazariy tahlil etilgan.

Dissertant ta'kidlashicha, O'rta asrlarda musulmon xalqlari tafakkurining rivojlanishi, avvalo, ikki asosiy yo'nalish: diniy ilmlar (ulum an-naqliya-العلوم النقلية) va dunyoviy ilmlarning (ulum al-aqliya-العلوم العقلية) shakllanishida o'z aksini topadi. Mashhur sharqshunos F.Rouzental O'rta asrlar musulmon Sharqi madaniyatini "bilim tantanasi" deb baholaydi. Bu baho haqiqatga yaqin, chunki islom dini tarqalgan davrni islomdan avvalgi, ya'ni johilliya davri bilan qiyoslashning o'zidayoq, islom orqali musulmonlar yangi turdagi bilimlarga ega bo'lganlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu bilimlar, avvalo, ilohiyot, kalomda qo'yilgan muammolar hal etilishida o'z ifodasini topgan. Falsafiy, huquqiy va bilimning boshqa sohalari ilohiy masalalarning hal etilishi jarayonida shakllanib mustaqil fanlarga aylanib boradi. Shu bilan birga, bilimning rivojlanish jarayonida, hozirgi til bilan aytganda, metodologiya, epistemologiya, ya'ni turli ilmiy usullar ishlab chiqilishi ham rivojlandi.

Tadqiqotchi fikricha, musulmon-arab falsafasi shakllanishi G'arb ma'naviy madaniyatini yunon falsafasi bilan bog'lab bergan zaruriy pog'ona bo'ldi. Tarixchi olim A.V.Koyre to'g'ri ko'rsatganiday, "...bu davrda arablar lotin g'arbining

ustozlari va tarbiyachilari bo‘ldilar”¹. Zero, yunon faylasuflarining asarlari lotin tiliga bevosita yunon tilidan emas, balki ularning arab tilidagi sharhlaridan tarjima qilib olindi. Bu hol G‘arbda qadimgi yunon tilini biladigan olimlar qolmagani yoki hali yo‘qligi sababli emas, balki Arastuning “Metafizika”si yoki Ptolemeyning “Almagest”i kabi murakkab asarlarni Forobiy, Ibn Sino yoki Ibn Rushdlar yordamisiz tushunish mumkin bo‘lmay qolgani tufayli sodir bo‘lgan edi.

“Ilmning ratsionalizmga yo‘nalganligi, mazkur davr arab mutafakkirlariga xos bo‘lgan. Falsafaning ratsionalistik fikr yo‘nalishi sifatida paydo bo‘lishi ilohiyot, fiqhda qadimgi mafkuraviy harakatlar bilan bog‘liq edi”². Diniy va dunyoviy falsafiy bilimlar Haqiqatni izlashga qaratilgan edi. Falsafiy va ilmiy bilimlar ijtimoiy olamni, tabiiy olamni idrok etishga intilgan, diniy bilim esa e‘tiborni narigi olamga qaratgan, unga ko‘ra, yerdagi hayot haqidagi bilim narigi dunyoga yetishish uchun xizmat rolini o‘ynagan.

O‘rta asrlar Sharq va G‘arb ma‘naviy uyg‘unligi o‘ziga xos zaruriyat sifatida shunday shaxslarni yaratdiki, ular bir yo‘la bir necha qit‘alarni birlashtira oldilar. Masalan, buyuk arab-ispans faylasufi Ibn Rushd nafaqat buyuk faylasuf, balki u Afrika va Osiyoni, Osiyo va Yevropani, xristianlik va islomni bir-biriga bog‘laydigan ko‘prikdir. Bundan tashqari, Ibn Rushd tufayli Yevropa o‘zini-o‘zi qayta tanidi. U buyuk yunon faylasuflari asarlarini arab tilidan ispan tiliga tarjima qilishi bilan Yevropa xalqlarini yunon madaniyatining gultoji bo‘lgan Aflotun va Arastu falsafasi bilan tanishtirdi. Avveroizm esa ilmu aqlning cho‘g‘lari ilk bor jilovlanib, ko‘zga tashlandi. Bu ratsionalizm keyinchalik Dekart, Spinoza, Leybnits kabi buyuk aql egalarining yetishib chiqishiga sabab bo‘ldi. Ular tafakkurning yangi qatlamlarini kashf etdilar. Bu qatlamlarda biz yangi davr deb ataydigan davrning iqtisodiy hayoti, ijtimoiy turmushi, siyosiy sohalaridagi yangi hodisalar o‘z in‘ikosini topgan edi.

O‘rta asr falsafasi tarixiga bag‘ishlangan asarida professor Moris de Vulf Ibn Rushd haqidagi fikrlarini umumlashtirib shunday deydi: “X asrda Ispaniya eng farqli ko‘plab turli irqning uchrashadigan joyi bo‘lgan. Musulmon mamlakatlarida yahudiylar va nasroniylar arablar bilan yonma-yon yashadilar... Bu Ispaniyaning XIII asrgacha kuchli falsafiy harakat markaziga aylanishiga yordam berdi. ...Biroq bu faylasuflarning hech biri shuhratda Ibn Rushd darajasiga yetmagan... va uning Arastuga hayrati chegara bilmasdi... lekin bu uning falsafasi Arastu falsafasining nusxasi degani emas”³. Moris de Vulf bergan ta‘rif, albatta, haqiqatdir. “...uning falsafasi Arastu falsafasining nusxasi, degani emas” jumlasini orqali professor bizga Ibn Rushdning Arastu asarlariga yozgan sharhlaridan tashqari o‘z dunyoqarashini aks ettiruvchi shaxsiy asarlariga ham murojaat qilish kerakligiga ishora bermoqda. To‘g‘ri, Ibn Rushd Arastu asarlariga mukammal sharhlar yozdi. Biroq, bu u Arastu soyasida qolib ketishi kerak, degani emas. Uning e‘tiqodiga doir dunyoqarashini belgilab beruvchi shaxsiy asarlari ham mavjud.

¹ Койре А.В. Очерки истории философской мысли. – М.: Прогресс, 1985. – С. 157.

² Фролова Е.А. Арабская философия. Прошлое и настоящее. – М., 2010. – С. 144.

³ Maurice de Wulf. History of Medieval Philosophy. – London: Forgotten books, 2018.– P. 174.

Yunon falsafasiga boʻlgan bagʻrikengligi natijasida Ibn Rushd Oʻrta asrlarda yevropaliklar tomonidan bir yoqlama tushunildi. Ikki falsafa oʻrtasida: Oʻrta asrlarda yevropaliklar tushungan Ibn Rushd falsafasi va oʻzi eʼtiqod qilgan falsafa; bu ikkisi oʻrtasida farqli nuqtalar mavjud boʻlib, ular baʼzan mohiyatga taʼsir qiladigan yoki oʻsha vaqtlardan xalos boʻlgan holda, boshqa tartibda talqin qilishga imkon beradigan tafovutlardir. Toʻgʻrirogʻi, ular bir emas ikki xil falsafiy dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Ulardan biri Arastu asarlariga sharhlari orqali Oʻrta asrlarda yevropaliklar tushungan, tan olgan Ibn Rushd falsafasi hamda faylasufning ilohiyot borasida yozilgan asarlari asosida uning eʼtiqodini belgilab beruvchi falsafasini keltirishimiz mumkin. Oʻrta asrlarda yevropaliklar tushungan Ibn Rushd falsafasi uch jihati bilan ajralib turadi:

Birinchi: Ular Ibn Rushd falsafasini tushunishda uning Arastu haqidagi tushuntirishlari va uning baʼzi kitoblari xulosalariga tayanganlar. Ibn Rushdning Arastuga qanday hayrati boʻlmasin, arab faylasufining qarashlari hamma sohada ham yunon faylasufining qarashlari bilan mos kelmaydi.

Ikkinchi: Ular lotin yoki ibroniy tillariga tarjima qilingan tushuntirish va xulosalarga tayandilar, biroq tarjima asl manbadan farq qiladi.

Uchinchi: Ibn Rushd falsafasi inkvizitsiya sudi boshqaruvi davrida yevropaliklar orasida mashhur boʻlib, mazkur sud arab-andalusiya falsafasini qattiq taʼqib qilganligi barchaga maʼlum. Shuningdek, u nasroniylik dini asoslariga zid boʻlgan fanlar bilan shugʻullanishni qatʼiy man etgan edi. Shuningdek, nasroniylikdan boshqa dinlarga tegishli asarlarni oʻrganishni ham rad etgan edi.

Islom dini yangi dunyoqarash asosiga aylandi, unda “imon” va “ilm” tushunchalari bir-biriga qarama-qarshi emas, balki oʻzaro bogʻliq edi. Qurʼoni Karimda, F.Rouzentel taʼkidlaganidek, aql va eʼtiqod “bir-biriga tenglashtirilgan”¹. Agar islomning ilk asrlarida eʼtiqod va aql oʻrtasidagi munosabat muammosi hali nazariy tushunchaga ega boʻlmagan boʻlsa, keyinchalik arab-musulmon falsafiy anʼanalarining vakillari ularning oʻziga xosligini shubha ostiga qoʻyib, aqlning eʼtiqod bilan qanday bogʻliqligi haqida faol fikr yurita boshladilar. Bu yerda, birinchi navbatda, bilish va tushunishning ratsional yoki moddiy hamda irratsional yoki gʻayritabiiy usuli oʻrtasidagi raqobat yotardi.

Dissertantning fikriga koʻra, din va falsafa munosabatlari borasidagi fikrlar yahudiylik, nasroniylik va islom dinining koʻplab vakillari dunyoqarashida oʻz aksini topgan. Xususan, yahudiylik dinida Iskandariyalik Filon, Saadiy Ibn Gaon, nasroniylik dinida Iskandariyalik Klement, musulmon-arab falsafasining yorqin vakillari Al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Ibn Tufayl, Ibn Rushd oʻz qarashlarida eʼtiqod va aql masalasini ochib berganlar. Ularning barchasi oʻz vaziyatidan, davrdagi ijtimoiy-siyosiy holatlardan kelib chiqib, din va falsafa munosabatlariga oʻz fikrlarini taqdim etganlar. Ulardan bir guruhi (Tertullian) falsafa, aqldan koʻra dinni, eʼtiqodni ustun qoʻygan boʻlsalar, ikkinchi guruhi (Klement, Saadiy ibn Gaon) eʼtiqod va aqlni muhimligini taʼkidlash bilan birga Xudoga boʻlgan eʼtiqod, dinning ustunligini eʼtirof etganlar. Uchinchi guruhi esa

¹ Роузенгал Ф. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе / Пер. с англ. С.А. Хомутова. М.: Наука, 1978. – С. 107.

(arab-musulmon faylasuflari: Al-Kindiy, Forobiy, Ibn Miskavayh, Ibn Sino, Ibn Tufayl, Ibn Rushd) din va falsafani o‘zaro uyg‘unlashtirishga, bir-biri bilan kelishtirishga uringanlar. Xususan, Ibn Rushd, din va falsafani Haqiqatga erishtiruvchi ikki yo‘l sifatida ko‘rgan. Din vositasida ham, falsafa vositasida ham haqiqatga erishish mumkinligini e‘tirof etib, mazkur masalada o‘ziga xos murosaga chaqiruvchi qat’iy fikr aytdi.

Ibn Rushd dunyoqarashini, undagi din va falsafa bog‘liqligi masalasini tadqiq etishda falsafiy-tarixiy metodga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda uning qarashlariga ta’sir etgan nazariy, g‘oyaviy asoslarni tahlil etish hamda ularning faylasuf qarashlarida aks etishini ochib berish muhim sanaladi. Natija Ibn Rushd va boshqa faylasuflar tomonidan ilgari surilgan din va falsafa munosabati masalasining qanchalik dolzarb ekanligini aniqlash bilan birga bunda mutafakkirning pozitsiyasini tahlil qilishda o‘z samarasini beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ibn Rushd “Ikki haqiqat” ta’limotining gnoseologik jihatlari”** deb nomlanib, Ibn Rushdning din va falsafa uyg‘unligiga oid qarashlari tahlili, uning “Ikki haqiqat” konsepsiyasining ontologik va epistemologik tadqiqi va “Kitab Fasl al-maqāl va tarqīq ma bayna ash-shari’a va al-hikma min al-ittisal” (Hikmat va shariat o‘rtasidagi uyg‘unlik haqida maqola) asarida ritorik, dialektik hamda dalilga asoslangan matnlar germenevtik tahlilining falsafiy mohiyati tadqiq etilgan.

Dissertant ta’kidlashicha, din va falsafa, o‘zaro tafovutlariga qaramay, ijobiy yo‘llarda o‘zaro ta’sir o‘tkazishlari mumkin. Biroq bu dunyoqarashlarning Haqiqat deb ta’kidlagan narsalariga erishish yo‘llari bir-biridan farq qiladi: din e’tiqodga asoslansa, falsafa oqilonalik usulidan foydalanadi. Ushbu fundamental farq muhim savolga olib keladi: umumiy til va uslubda bo‘lmashliklariga qaramay, falsafa va din bir-biriga foyda keltiradimi? Zamonaviy falsafadagi fanlararo metodologiyaga tayanib ularni muvofiqlashtirish mumkinmi? Hanuzgacha oxirgi javob yo‘q, chunki ilohiyotshunoslar, faylasuf va olimlarning fikrlari hozirgi kunda ham turlichadir. Shunga qaramay, falsafa va dinni bog‘lash bo‘yicha yangi sa’y-harakatlarni amalga oshirish, bir tomondan, ilmiy turg‘unlikning oldini olishga, boshqa tomondan hurofot va turli xil aqidalarni cheklashga yo‘l qo‘ymaslik uchun foydali bo‘ladi.

Ibn Rushd “Fasl al-maqāl” asarida falsafa va diniy mulohazalar o‘rtasida bir-biriga qarshi bo‘lmagan ko‘plab misollar mavjudligini ta’kidlab o‘tgan. Aslini olganda, Ibn Rushdning mazkur risolasidagi maqsadlaridan biri – falsafa va diniy mulohazalar haqiqatni ifodalashda bir-biriga mos va uyg‘un fikrlash usullari sifatida talqin qilish. Falsafa (hikma) va oyatlarni (ya’ni, diniy bitiklarni) o‘zaro mos bo‘lgan va bir-biriga zid bo‘lmagan munozarali shakllar sifatida tavsiflash dastlabki tavsif hisoblanadi. Biroq, bu Ibn Rushdning munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning o‘ziga xosligini ifodalamaydi. Masalan, bu umumiy bayonot falsafa yoki diniy bitiklar ierarxik bog‘liqlikning bir shakli sifatida, bu ikki taklifning biri haqiqatni anglash va yolg‘ondan saqlanishning eng ishonchli yo‘li sifatida emas, balki Nauman Faiziy aytishicha, “Ibn Rushd fikridagi bu kabi diniy bitiklar va falsafa bir-biriga parallelligi va bir-biriga zid bo‘lmagan o‘zaro teng mantiqiy

nuqtai nazar sifatida bir xil hodisalar natijasidir”¹. Bu xulosalariga asoslangan faylasuf o‘zining “Ikki haqiqat” konsepsiyasini keltirdi.

Bunga ko‘ra, din va falsafa mutlaqo boshqa sohalarida shug‘ullanadi, bir-biri bilan deyarli hech qanday umumiylik yo‘q, shuning uchun dinning o‘ziga xos haqiqatlari va falsafaning o‘ziga xos haqiqatlari borligi ajablanarli emas. Bundan tashqari, bu haqiqatlar nafaqat mumkin, balki turli xil va, hatto, qarama-qarshi bo‘lishi kerak. Ularning bir-biriga mos kelmasligida noto‘g‘ri va g‘ayrioddiy narsa mavjud emas: bu tabiiy, normal va tushunarli. E‘tiqod va aql uyg‘unligi tarafdorlari ta‘kidlaganlaridek, ular umuman qo‘shilmasliklari kerak shu bilan birga bu haqiqatlar ziddiyatli bo‘lishi mumkin emas, chunki ular qarama-qarshi va aslida mos kelmaydigan tudhunchalar haqida gapiradilar.

Ibn Rushd falsafiy xulosalar va Qur‘on o‘rtasida hech qanday ziddiyat bo‘lishi mumkin emas, - deb hisoblaydi: “Bu din haqiqiy bo‘lib, bilimga yetaklovchi tadqiqni ma‘qullagani bois, biz musulmonlar, aql yordamida o‘rganish Qur‘oni Karim o‘rgatuvchi narsalarga zid xulosalarga olib kelmasligini bilamiz”². Ibn Rushd “Fasl al-maqāl” asarida Alloh tomonidan Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar sifatida butun bashariyatga yuborilganliklarini, ular ko‘rsatgan yo‘ldan yurish lozimligini uqtiradi. Aynan shu shariat bandalarni Alloh buyurgan ishlarini bajarishlari, u ko‘rsatgan yo‘ldan yurishlarini ta‘minlaganligini ta‘kidlab o‘tadi, hamda Qur‘on oyatidagi “hikmat” so‘ziga alohida urg‘u berib, aynan shu shariat vositasida Alloh buyurgan yo‘ldan borishda hikmatga ham munojaat qilishga chorlanganligini namoyish etadi. Shu asarning o‘zida falsafa usullari qanchalik shariat tomonidan tasdiqlanganligini dalillab o‘tadi: “Va agar bu shariat haqiqatdan ham tafakkurga chorlovchi, haqiqatni bilishga yetaklovchi bo‘lsa, biz musulmonlar aniq bilamizki, dalillarga asoslangan mulohazalar shariatda mavjud bo‘lgan narsalarga zid bo‘lmaydi. Darhaqiqat, haqiqat haqiqatga zid kelmaydi, aksincha, unga muvofiq va uning foydasiga dalil bo‘lib xizmat qiladi”³.

Shuni aytishimiz mumkinki, Andalusiya faylasufi dinni asossiz deb hisoblamagan. O‘zidan oldingi va o‘zidan keyingi ko‘plab o‘rta va yangi davr faylasuflari kabi dinni asossiz deb topmagan. Hikmat va shariatning har biri bir-biriga muhtojligi va ular har birining o‘z xalqi va ishonuvchilari borligini ta‘kidlagan. Oxirigacha Ibn Rushdni ular orasidagi yarashuv nuqtai nazarida ko‘ramiz. Bu shuni anglatadiki, mazkur munosabatda u har bir dindorning dinda tanlaydigan pozitsiyasini va ratsionallik, aqlning qadrini birgalikda olib qarab, o‘rta yo‘lni tanladi. Demak, e‘tiqod va aql ifodasi nazariyasi Ibn Rushdning ratsionallik pozitsiyasining davomi bo‘lib, dinga nisbatan ratsional qarashdir. U tarix va falsafa o‘rtasidagi fanlararo yondashuvga asoslanib, tabiiy-ilmiy bilimlardagi epistemologik xulosalarga tayangan holda o‘z xulosalarini berish bilan birga Forobiy va Ibn Sino kabi faylasuflarning dunyoqarashlarini himoya qila oldi.

¹ Nauman Faizi. Averroes on the Relationship between Philosophy and Scripture: A Conditional Hierarchy// The Journal of Scriptural Reasoning. Volume: 15. Issue:1. 2016/3. – P. 34.

² ابن رشد. فصل المقال فيما بين الحكمة والشريعة من الاتصال. (Hikmat va shariat o‘rtasidagi uyg‘unlik haqida risola). القاهرة. 2007. – ص. 2.

³ ابن رشد. فصل المقال فيما بين الحكمة والشريعة من الاتصال. (Hikmat va shariat o‘rtasidagi uyg‘unlik haqida risola). القاهرة. 2007. – ص. 4.

Ibn Rushd e'tiqod va aqlni uyg'unlashtirish maqsadida payg'ambar va faylasuf tushunchlarini ham uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda tashkilotchilikda payg'ambarlarni o'rni yuksakligini aytib o'tadi: "Payg'ambarlar qonun o'rnatuvchilar bo'lib, ular jamiyatga qonunlar taqdim etadilar". Ibn Rushd quyidagi iborani keltiradi: "nabaviy qonun o'rnatuvchilik donishmandligi". Ochiq ravshanki, bu yerda u "payg'ambarlik vazifasi" bilan "falsafiy donishmandlik"ni o'zaro bir-biriga bog'lash maqsadida bo'lgan. Ibn Rushd faylasuf – donishmand ta'limotini quyidagi ajoyib, bir qarashda g'aroyib hikmatda ifoda etadi: "Har bir payg'ambar – donishmanddir, lekin hech bir donishmand payg'ambar emas"¹. Aynan shu hikmat faylasufni falsafa va dinni aloqadorligi haqidagi ta'limotining asl mag'zi hisoblanadi.

Ibn Rushdning shariat haqidagi fikrlarini hulosalab, falsafiy bilim bilan diniy bilimning maqsadi bir, bir xil, manbasi esa boshqadir, degan xulosa kelib chiqadi. Shu yerda Ilohiy ilm bilan, insoniy ilm o'rtasidagi farqni ko'rsatib o'tganligi o'z-o'zidan namoyon bo'ladi. Din payg'ambarlar orqali insonlarga yetkazilib, amalga tatbiq qilinadi. Ana shu vaqtdan boshlab Ilohiy ilm payg'ambar sunnatlari, ya'ni tutgan yo'li va usullari vositasida insoniy ilm maqomiga ega bo'ladi. Ular oshkor qilgan narsa shariat (qonun) deyiladi, deyishimiz mumkin.

Ibn Rushd din va falsafani o'zaro bog'liq, doimo hamroh bo'lishi kerak ekanligini namoyish etishga harakat qilgan. Falsafa ham, din ham eng avvalo butun borliq va olamning oliy sababchisi bo'lmish Xudo haqida tafakkur qiladi. Lekin ular tafakkur qilish uslubi jihatidan farq qiladi: "... Zero, do'stning haqorati dushmandan chiqqan haqoratdan ham yomonroqdir. Aytmoqchimanki, falsafa dinning do'sti (hamrohi) va sut singlisidir. Shuning uchun ham ularga adovat, kelishmovchilik, nafrat aloqador deb da'vo qilganlarning g'azabi eng achchiqdir. Aslida ular mohiyatida hamroh va tabiatan do'stdirlar"².

Risolaning bir qismida mulohaza va konsepsiyalarni shakllantirish uchun vosita sifatida dialektik va ritorik mulohazalarga nisbatan dalilga asoslangan mulohazalarning ustunligi bayon etiladi. O'z maqsadlari nuqtai nazaridan fikrlashning ushbu uchta shakli bir-biridan farq qilmaydi, chunki har biri fikr va tushunchalarni ishlab chiqarishga qaratilgan: "Shunday qilib, din dalil vositasida Alloh taoloni va u yaratganlarini ilm olishga undaydi. Biroq, Alloh taolo va uning yaratganlarini shariat tomonidan aqliy qiyos orqali ko'rib chiqish maqsadga muvofiq, degan qarorga kelinsa, avvalo, qanday dalillar borligini, uni [asoslash] shartlari qanday hamda dalilga asoslangan mulohaza dialektik, ritorik va sofistlik fikrlashdan farqi qandayligini ko'rib chiqish lozim bo'ladi"³. Ibn Rushd Muqaddas matnlarning zohiriy va botiniy ma'noga ega bo'lishining sababi odamlarning tabiiy qobiliyatlari, ularning hukm chiqarishga bo'lgan tug'ma moyilliklari o'rtasidagi tafovutda, deb hisoblaydi. Qur'on lug'aviy ma'nosida bir-biriga zid bo'lgan

¹ ابن رشد. تهافت التهافت (Raddiyani rad etish). القاهرة، 1998. ص. 425.

² ابن رشد. فصل المقال فيما بين الحكمة والشريعة من الاتصال. (Hikmat va shariat o'rtasidagi uyg'unlik haqida risola). القاهرة، 2007. ص. 23.

³ ابن رشد. فصل المقال فيما بين الحكمة والشريعة من الاتصال. (Hikmat va shariat o'rtasidagi uyg'unlik haqida risola). القاهرة، 2007. ص. 4.

jumlalarni o'z ichiga olganligining sababi ilmda mustahkam xalqlarni murosali tafsirga undashligida ko'radi.

Ibn Rushd "din-falsafa" munosabatini tavsiflash uchun "zohiriy" (tashqi) va "botiniy" (ichki) turkumlari juftligiga asoslanadi, bu "ochiq-yashirin" (zohir-botin) turkum juftligi variantlaridan biridir. Bu tushunchalar musulmon-arab falsafiy an'analari doirasida shakllangan asosiy terminologiyaga taalluqli. Ular qarama-qarshi tushunchalar juftligi munosabatini tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu, bir tomondan, e'tiqod va aqlni anglashda mutafakkir arab-musulmon madaniyatining "aniq – yashirin" turkum juftligi bilan bog'liq semantik intuitsiyalarini go'yo takrorlashini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, u musulmon-arab madaniyatida ularga berilgan "tashqi" va "ichki" toifalarning semantik mazmunini hisobga olishga harakat qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Ibn Rushd falsafiy merosining empirik va ratsional bilimlar rivojiga ta'siri"** deb nomlanib, "Ikki haqiqat" konsepsiyasining G'arb hamda Sharq mutafakkirlariga ta'sirini, Lotin averroizmini Ibn Rushd ratsional qarashlarining g'oyaviy vorisi ekanligi, Ibn Rushd ilmiy-falsafiy qarashlarida e'tiqod va aql uyg'unligi g'oyasining hozirgi davrda ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati ochib berilgan.

